

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI**

“

**“TASDIQLAYMAN”**

Namangan to'qimachilik sanoati  
instituti rektori



*Q.M. Xoliqov*  
2024 yil "28" oy.

Ro'yhatga olindi: № 60721400-1.20

2024- yil "\_\_\_" avgust

**KIYIM ANDOZALARINI TAYYORLASH**  
**O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	700 000	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
<b>Ta'lim sohasi:</b>	720 000	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
<b>Talim yo'nalishi:</b>	<b>60721400</b>	Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (tikuv buyumlari texnologiyasi)

Namangan-2024

Fan/modul kodi KAT 13410		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3-4	Kreditlar 10
Fan/modul turi Asosiy		Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kiyim andozasini tayyorlash	120	180	300
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b> Fanni o'qitishdan maqsad – talaba matoni manipulyatsiya qilish va shakllantirish san'ati, model eskizini andoza orqali kiyimga aylantirish, material xossalari, moda yo'nalishi, kostyum kompozitsiyasi asoslariga mos ravishda turli shakl, bichim siluetdagi kiyim modellarini loyihalashning perspektiv va zamonaviy usullarini egallash va ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi -kiyim kompozitsiyasi tamoyillari asosida eskizlar yaratish, bichim va shakl tamoyillari asosida turli kiyimlarning konstruktsiya chizmalarini ishlab chiqish, modellashtirish, andozalarini tayyorlash, kiyim detallariga bezak berish shuningdek, loyihalashning umumiy tamoyillarini tavsiflash, amaliy faoliyatda kiyimlarni loyihalash tamoyillari va usullaridan foydalanish.			
	<b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b> <b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b> <b>1-ma'ruza. Kirish. Kiyim andozasini tayyorlash fanining maqsad va vazifalari.</b> Yengil sanoati rivojlantirishni hozirgi kundagi holati. Kiyim andozasini tayyorlash fanining maqsad va vazifalari. <b>2-ma'ruza. Zamonaviy kiyim klassifikatsiyasi.</b> Kiyim to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Kiyimning vazifasi, zamonaviy kiyimlar tasnifi. <b>3-ma'ruza. Kiyimning sifati va unga qo'yiladigan talablar.</b> Kiyim sifati. Estetik talablar. Gigiyenik talablar. Ekspluatatsion talablar. Tikuv buyumlarini loyihalashda kiyimga qo'yiladigan talablar. <b>4-ma'ruza. Gavdadon o'Ichov olish tartibi va o'Ichov olish qoidalari.</b> Gavadadan o'Ichov olish. Erkaklar gavdasining proporsiya tiplari. Gavdaning asosiy antropometrik nuqtalari. <b>5-ma'ruza. Kiyim yangi modelini loyihalash*</b> Yangi model tuzilishining tahlili. Modelga xos ahamiyatli xususiyatlar. Kiyimning turi, silueti, bichimi, razmeri, bo'yи va to'laligi. Modelga mos bazaviy konstruksiyani tanlash. Bazaviy asosdan yangi konstruksiyalar tuzish			

usullari. Birinchi xil konstruktiv modellashtirish usullari. Model xususiyatini chizmada qurish.

**6-ma’ruza. Konstruktiv asosning siluetini o‘zgartirib modellashtirish usullar.\***

Detallarni parallel kengaytirish. Detallarni konussimon kengaytirish va toraytirish. O’tkazma yengli bazaviy asosni o‘zgartirishlar orqali yengi boshqacha bichimli reglan, yaxlit bichilgan, chuqurlashtirilgan o‘mizli yangi model konstruksiyalarini ishlab chiqish. Yaxlit bichilgan yengli yumshoq shaklli trikotaj buyum konstruksiyasi.

**7-ma’ruza. Kostyumni badiiy kreativ loyihalash usullari.**

Kombinatorika usullari. Transformatsiya usuli. Kinetizm. Razmersiz kiyimni ishlab chiqish. Yaxlit mato bo‘lagidan kiyim ishlab chiqish. Loyihalashning modul usuli. Dekonstruksiya usuli.

**8-ma’ruza. Ayollar va erkaklarning milliy kiyimlarini konstruksiyasini qurish va texnik modellashtirish**

Erkaklar va ayollar milliy kiyimlarini tarixi. Milliy kiyimlarni loyihalashning o‘ziga xos xususiyatlari. Milliy kiyim. Model eskizlari.

**9-ma’ruza. Dizaynerlik qobilyatlaridan foydalanib kiyimni bezash.**

Rang uyg‘unligi. Xromatik va axromatik ranglar. Xromatik kompozistiyalarda ranglar uyg‘unligi. O‘xhash ranglarning uyg‘unlashgan birikmasi. Kostyum yangi modellarini yaratishda tarixiy yodgorliklardagi naqshlardan foydalanish. Zardo‘zlikda zar kashta tikish usullari. Milliy naqshlarning ramziy ma’nosi.

**10-ma’ruza. Matoning butun bo‘lagidan kiyim loyihalash. Mulyaj usulining mohiyati va uni amalda qo‘llash.**

Mulyaj metodining mohiyati. Gazlamani tayyorlash. Mulyaj metodining mohiyati. Gazlamani tayyorlash. Mayda taxlamalarni qurish bosqichlari. Andaza chiziqlarini shakllantirish.

**11-ma’ruza.Kvalimetriya to‘g‘risida tushuncha. Eskiz yoki jurnal rasmi bo‘yicha kiyim loyihasini tayyorlash.**

Sifat tushunchasi. Kiyimga qo‘yiladigan talablarning namoyon bo‘lishi. Kvalimetriyaning asosiy qoidalari va amallari. Ishlab chiqarish mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari. Eskizda asosiy nuqtalarni belgilash. Gavdaga mos kiyim tanlash qoidalari.

**12-ma’ruza. Primerka qilib primerkasiz tikiladigan kiyimlarni loyihalash.**

Kiyimlarni primerka qilish bosqichlari. Primerka qilishdagi maxsus belgilar. Kostyumlar gruppasiga mansub kiyimlar.

**13-ma’ruza. Bolalar kiyimlarini andozalarini tayyorlash.\***

Bolalar kiyimini loyihalash jarayoni konstruktordan ularning psixologiyasi, jismoniy rivojlanishi, fiziologiyasi va h.k. sohalar to‘g‘risida maxsus ma’lumotlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Bolalar kiyimi loyihalashda, o‘sish davri tana tuzilishi, mutanosibligida, tashqi qiyofasida, harakatlarida, odatlari va qiziqishlarida birin-ketin kuzatiladigan o‘zgarishlarni hisobga olish. Bola katta bo‘lgan sari kiyimlarining komplekti va bezaklari o‘zgarib borishini hisobga olish.

	<p><b>14-ma’ruza. Qiz bolalar tungi ko‘ylagini andozasini tayyorlash</b>  Tungi ko‘ylakni bichish va tikish. Qiz bolalar tungi ko‘ylagini modellashtirish. Model andazasini gazlamaga joylashtirish.</p> <p><b>15-ma’ruza. Odam qomatida kiyimning asosiy detallarini shakllantirish*</b>  Detallar konstruksiyasini odam qomatida yoki manekenda igna (bulavka) qardash yo‘li bilan olish. Konstruktor odam qomatining o‘lchamlarini olishi. Berilgan shaklga bog‘liq holda to‘kislikka beriladigan qo‘sishmchalarni tanlash. Buyum konturini aniqlash. Manekenni qadalmaga tayyorlash. Maketli gazlamani tayyorlash.</p> <p><b>16-ma’ruza. Andozalar chizmalarini tayyorlash asoslari*</b>  Konstruksiya chizmasini batafsil tekshirish. Chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog‘liq aniqliklarni ko‘rib chiqish. Detallar chizmasining nusxalarini boshqa qog‘ozga tushirish. Asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasini ishlab chiqish. Andozalar shablonini tayyorlash.</p> <p><b>17-ma’ruza. Andozalarni rasmiylashtirishning texnik asoslari.</b>  Asosiy, hosila, etalon, ishchi andazalarda detallarni bichish va ularga texnologik ishlov berishga oid texnik talablar to‘g‘risida ma’lumot belgilari qo‘yiladi.</p> <p><b>18-ma’ruza. Andozalar joylashmasini bajarish va andazalararo chiqitlarni hisoblash*</b>  Andazalar yuzasini aniqlash, gazlama sarf meyorini hisoblash, kiyim detallari joylashmasini ishlab chiqish.</p> <p><b>III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar</b></p> <p><i>Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Gavdadan o‘lchov olish tartibi va o‘lcham olish qoidalari.</li> <li>2. Turli bichimli yubka chizmasi andozasini tayyorlash.</li> <li>3. Shim konstruksiyasini qurish va andozasini tayyorlash.*</li> <li>4. Mulyaj usulini qo‘llab kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish.*</li> <li>5. Bolalar zamonaviy kiyimini konstruktiv modellashtirish.*</li> <li>6. Ayollar ko‘ylagini andozasini ishlab chiqish.*</li> <li>7. O‘zbek milliy kiyimlarini konstruksiyalash va andozasini tayyorlash.</li> <li>8. Reglan yengli va yengi yaxlit bichimli ko‘ylaklarni loyihalash</li> <li>9. Erkaklar sarochkasini andozasini tayyorlash.</li> <li>10. Erkaklar maxsus kiyimlarini konstruksiyalash va andozasini tayyorlash.</li> </ol> <p><b>Izox:</b> * Indian Institute of Technology Delhi (IITD), 197 QS World University Rankings</p> <p>** University of the Arts London, London college of fashion 2 QS World University Rankings (by subjects)</p> <p>*** Ege university, Turkey, 915 QS World University Rankings</p> <p>**** Iftixor kiyim sanoat M.Ch.J, Fazman Textile M.Ch.J, Imron Textile Group X/K, Ideal Tekstil-Orzu M.Ch.J. korxonalarini taklifidan olingan.</p> <p><b>IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar</b></p>
--	---

	<p><b><i>Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Turli bichimdagи ayollar yubkasini konstruksiyalashning xususiyatlari</li> <li>2. Turli bichimdagи shimplarni konstruksiyalashning xususiyatlari</li> <li>3. Turli materillardan (charm mo‘yna pylonka) kiyimlarni konstruksiyalash va andozalarini tayyorlash.</li> <li>4. Ayollar paltosini konstruksiyalash.</li> <li>5. Ayollar ko‘ylagini MGUDT uslubi bo‘yicha loyihalash.</li> <li>6. Ayollar milliy nimchasini andozasini ishlab chiqish.</li> <li>7. Erkaklar choponini andozasini ishlab chiqish.</li> <li>8. Ayollar shimini andozasini ishlab chiqish.</li> <li>9. Ayollar lozimini andozasini ishlab chiqish.</li> <li>10. Erkaklar pidjagini andozasini ishlab chiqish.</li> <li>11. Erkaklar yaxtagini andozasini ishlab chiqish.</li> <li>12. Erkaklar maxsus kiyimini andozasini ishlab chiqish.</li> </ol>
3.	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>- yangi model tuzilishiga xos xususiyatlari, konstruktiv asos siluetini o‘zgartirib modellashtirish usullari, milliy kiyimlarni konstruksiyasini qurish, modellashtirish, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini turli usullarda yangi model andoza chizmalarini yaratish haqida <b><i>tasavvurga ega bo‘lishi</i></b>;</p> <p>- odam tanasini tavsiflaydigan razmerli tipologiya va razmerli standartlar, turli assortimentdagи kiyimlarni konstruksiyalash, modellashtirish usullari yangi kiyim modellarini sanoat sharoitida loyihalash yo‘nalishlarini <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i></b>;</p> <p>kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish, model eskizi bo‘yicha kiyim konstruksiyasini ishlab chiqarishni; figurada va manekenda kiyim maketini yaratish; kiyimlarni sanoat usulida konstruksiyalash va loyihani tayyor namuna darajasigacha yetkazish <b><i>ko‘nikmalariga ega bo‘lish kerak</i></b>.</p>
4.	<p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfoal keys-stadilar;</li> <li>• blits-so‘rov</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p>

	Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to‘la o‘zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan ishlab chiqilgan vazifalarga muvofiq individual ravishda amalga oshirish va ularni amalda qo‘llay olish, nazorat turlari bo‘yicha berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida topshirish.
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <p>1. Ergashev J.S., Nabidjanova N.N., Rayimberdiyeva D.X., Ergasheva R.A. “Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash” Namangan-2022 yil. 130 bet.</p> <p>2. Kamilova X.X., Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» Darslik –Т.: «Cho‘lpon», 2011 y-400b</p> <p><b>Qo‘srimcha adabiyotlar</b></p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston” 2017 yil, 488 bet.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. Toshkent. “O‘zbekiston” 2016 yil, 56 bet.</p> <p>3. Янчевская Е.А. Аёллар уст кийимини кострукциялаш. Т.: «Ўқитувчи» 1998 йил-320 б</p> <p>4. Амирова Э., Сакулина О. И др. Конструирование одеды. Учебник «Академия», 2012 г.</p> <p>5. Коблякова Ё.Б. Конструирование одежды с элементами САПР Учебник.-М., «Легпромбытиздат», 1988г-464 с.</p> <p>6. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. «Конструктивное моделирование одежды». М., 2002-310 с</p> <p>7. Мюллер и сын. Сборник. Основные конструкции 2008 г.</p> <p>8. Лин Жак. Техника кроя. 800 рисунков моделей, детальных чертежей и наглядных схем. Рипол Классик, 2008 г.</p> <p>9. Делаем выкройки на любую фигуру. Более 300 самых модных моделей/сост. И.А.Зайцева-М.: РИПОЛ классик, 2007. – 448 с. : ил.</p> <p>10. Ege University information package  <a href="https://ebp.ege.edu.tr/DereceProgramlari/Detay/1/45/2640/932001?lang=en-US">https://ebp.ege.edu.tr/DereceProgramlari/Detay/1/45/2640/932001?lang=en-US</a></p> <p><b>Axborat manbaalari:</b></p> <p><a href="https://www.pinterest.com/search/pins/">https://www.pinterest.com/search/pins/</a></p> <p><a href="https://m.ok.ru/burda.100.super.ideas.and.you/album/56957282746402">https://m.ok.ru/burda.100.super.ideas.and.you/album/56957282746402</a></p> <p><a href="https://i.pinimg.com/originals/94/">https://i.pinimg.com/originals/94/</a></p> <p><a href="https://www.pinterest.com/pin/70437479291019/">https://www.pinterest.com/pin/70437479291019/</a></p> <p><a href="https://korfiati.ru/modelirovanie/">https://korfiati.ru/modelirovanie/</a></p> <p><a href="https://univision.kz/edu-program">https://univision.kz/edu-program</a></p> <p><a href="https://avezov.edu.kz/rus/stranitsy-ru">https://avezov.edu.kz/rus/stranitsy-ru</a></p>
7.	Fanning dasturi Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Kengashining 2024-yil “__” “___” “__” - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

<b>8.</b>	<b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b> Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna - Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyalash va texnologiyasi” kafedrasи professori Rayimberdiyeva Dilrabo Xabibillayevna - Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyalash va texnologiyasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi
<b>9.</b>	<b>Taqrizchilar:</b> Maqsudov Nabijon Baxodirovich - Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyalash va texnologiyasi” kafedrasи mudiri, dotsent Yunusov Odiljon Soliyevich – Namangan “IDEAL TEKTIL ORZU” MChJ rahbari